



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### SANOAT KORXONALARIDA KORPORATSIYA ALOQALARINI KENGAYTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

**Qayumova E'zoza Begmurodovna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** *Mazkuz tezis sanoat korxonalarida korporatsiya aloqalarini kengaytirishning iqtisodiy ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida korporativ hamkorlikning iqtisodiy mazmuni, ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri, xarajatlarni optimallashtirishdagi roli hamda innovatsion rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, korporatsiya aloqalarining sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirishdagi o'rni ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda korporativ aloqalarni rivojlantirish muhim strategik yo'nalish ekanligini ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar.** *Sanoat korxonalari, korporatsiya aloqalari, iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, integratsiya, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, sanoat klasterlari, eksport salohiyati*

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining mustaqil faoliyat yuritishi tobora murakkablashib bormoqda. Raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning tez yangilanishi va resurslar cheklanganligi sanoat subyektlaridan o'zaro hamkorlikni rivojlantirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, sanoat korxonalarida korporatsiya aloqalarini kengaytirish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Korporatsiya aloqalari ishlab chiqarish, moliyaviy va texnologik imkoniyatlarni birlashtirish orqali yuqori iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradi. Ushbu tezisda sanoat korxonalarida korporatsiya aloqalarini kengaytirishning iqtisodiy ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

**Korporatsiya aloqalari** deganda sanoat korxonalarining uzoq muddatli, barqaror va o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan iqtisodiy munosabatlaridir. Iqtisodiy nazariyada bu tushuncha kooperatsiya va integratsiya jarayonlari orqali izohlanadi.

Mutaxassislarning fikricha, kooperatsiyalar iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirish, chakana narxlarni pasaytirish, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni jalb etish, innovatsion uslublarni qo'llash, tovarlarni xalqaro bozorga olib chiqish imkonini yaratish, kichik va o'rta biznes vakillarining birlashib, yirik tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro raqobat muhitiga kirishishi orqali monopoliyaning oldini olishda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Shu bois mamlakatimizda butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish hamda sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mahalliyashtirish yordamida import hajmini qisqartirishga taraqqiyotning garovi sifatida e'tibor qaratilmoqda.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Navoiy viloyatida ham ushbu dasturlarni amalga oshirish, yangi-yangi loyihalarni tatbiq etish, mavjudlarini monitoring qilish hamda belgilangan prognoz parametrlari bajarilishini ta’minlash yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur dasturlar doirasida 2021-yilda 54 ta hududiy korxonalar tomonidan 111 turdagi 759,1 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilishiga erishildi.

Ta’kidlash joiz, ayni paytda Prezidentimizning 2022-yil 24-yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga asosan viloyatda tashkil etilgan ishchi guruhi shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda yangi turdagi mahsulotlarni mahalliyashtirish va korxonalar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, import hajmini optimallashtirish yuzasidan doimiy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ishchi guruhi tomonidan mahalliyashtirilayotgan mahsulotlar ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘yayotgan tashabbuskorlarning muammolarini o‘rganish va ularga amaliy yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yilib, hududlarda hal etish imkoni bo‘lmagan muammolar tahlil qilinmoqda. Tahlillar natijasida aniqlangan muammolarni tegishli mas’ullar hamkorligida muhokama qilish va zaruriy choralarni ko‘rish tadbirlari nazoratga olingan.

Qaror doirasida joriy yilda 56 ta hududiy korxonada 142 turdagi yangi mahsulotlar o‘zlashtirilishi hamda 1,1 trillion so‘mdan ortiq import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi va bularning hisobiga mingga yaqin ish joyi yaratilishi hamda 90 million AQSH dollaridan ortiq miqdorda valyutani tejash rejalashtirilgan. Shuningdek, o‘zlashtirish uchun tavsiya etilayotgan 980 ta mahsulot turidan 55 tasi tanlab olinib, mahalliy resurslar asosida o‘zlashtirish bo‘yicha tadbirkorlik subyektlari bilan birgalikda loyihalar tayyorlanmoqda.<sup>22</sup>

Korporatsiya aloqalarining kengayishi innovatsion rivojlanish jarayonini ham jadallashtiradi. Innovatsiyalarni yaratish va joriy etish katta moliyaviy mablag‘ hamda ilmiy salohiyat talab etadi. Korporativ hamkorlik sharoitida ilmiy-tadqiqot ishlari birgalikda olib borilib, yangi texnologiyalar tezroq joriy etiladi va innovatsion risklar taqsimlanadi. Bu esa sanoat tarmoqlarining texnologik darajasini oshiradi. Mazkur jarayon sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Korporativ tuzilmalar xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lib, ichki va tashqi bozorlarda mustahkam mavqeni egallaydi. Eksport salohiyatining oshishi tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirib, sanoatning umumiy o‘sish sur‘atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Korporatsiya aloqalarining rivojlanishi hududiy iqtisodiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish zanjirlariga kichik va o‘rta biznes subyektlarining jalb etilishi yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, aholi daromadlarining oshishiga hamda davlat byudjeti tushumlarining ko‘payishiga olib keladi. Natijada sanoat rivoji va hududiy barqarorlik o‘zaro bog‘liq holda ta’minlanadi.

Sanoat korxonalarida korporativ aloqalarni rivojlantirishda dunyo olimlari e’tirof etgan uchta muhim omilning o‘zaro mutanosibligiga erishish lozim. Bular: korxonalarining

<sup>22</sup> <https://xs.uz/uz/post/sanoatda-kooperatsiya-alloqalarini-kengaytirish-ustuvor-maqsad>






## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



moddiy-texnik bazasi, tashkilotchilik faoliyati hamda ijodkorlik (yaratuvchanlik) qobiliyatidir. Korporativ integratsiya aynan ushbu uchta yo'nalishning keshishuvi nuqtasida yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.<sup>23</sup>



Ushbu fundamental omillarning integratsiyalashuvi natijasida korxonalar o'rtasida funksional ixtisoslashuv kuchayib, har bir ishtirokchi o'zining nisbiy ustunligiga ega faoliyat bilan shug'ullanadi va bu ishlab chiqarish samaradorligining bevosita oshishiga xizmat qiladi.

Bunday tizimli hamkorlik ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish bilan birga, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, korporatsiya aloqalari sanoat korxonalariga xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Xususan, xomashyo va butlovchi qismlarni markazlashgan holda xarid qilish orqali ulgurji narxlar shakllanadi, logistika va transport xarajatlari qisqaradi hamda takrorlanuvchi boshqaruv funksiyalari yo'q qilinishi hisobiga mahsulot tannarxi o'rtacha 10–15 foizga kamayadi.

Innovatsion jarayonlarni jadallashtirishda ham korporativ hamkorlikning roli beqiyosdir. Yirik korporativ tuzilmalar sharoitida ilmiy-tadqiqot ishlari birgalikda olib borilib, yangi texnologiyalar tezroq joriy etiladi va innovatsion risklar taqsimlanadi. Bu esa korxonalarining xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratib, ularning nafaqat ichki, balki tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi.

### Xulosa

Sanoat korxonalarida korporatsiya aloqalarini kengaytirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Korxonalar o'rtasidagi barqaror hamkorlik resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

<sup>23</sup> <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Korporativ aloqalar innovatsion faoliyatni jadallashtirib, mahsulot sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday hamkorlik sanoat korxonalarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Natijada korporatsiya aloqalarini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shini ta’minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lex.uz
2. Mamatkulova, N. (2021). Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish. Society and innovations / Jamiyat va innovatsiyalar, Special Issue – 1, 2181-1415, <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
3. <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
4. Yuldasheva N. *Korxonaning innovatsion rivojlanishi: shartlari va tarkibiy qismlari*. — innoist.uz, 2022

